

## **YOSHLAR TARBIYASIDA HUQUQIY SAVODXONLIK DARAJASINI OSHIRISH JARAYONLARI.**

**Shodmonov.M.I.**

**TerDu huquqshunoslik fakulteti talabasi**

Har qanday jamiyatning, huquqiy manfaatlaridan kelib chiqib, inson huquqlarini himoyalashga asoslangan asosiy qonuni, ya'ni Konstitutsiyasi bo'lishi kerak. Konstitutsiya, avvalo, inson huquqlarini himoya qilishi hamda davlat mafaatlariga mos kelishi shart. O'zbekiston Respublikasining Bosh qomusi — Konstitutsiyamizda fuqarolar mafaatlari barcha narsadan ustun ekanligi ta'minlangan. Shuningdek, konstitutsiya fuqarolar va davlat xavfsizligini ta'minlaydigan yagona mukammal huquqiy hujjat sanaladi. Yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarning manfaati aynan Konstitutsiya orqali himoya qilingan. Jumladan, Asosiy qomusimizning **50-moddasida** "Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi" deb keltirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasidning **32-moddasida** Qonuniy asoslarda O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lib turgan har kim mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. Har kim O'zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistonga to'sqinliksiz qaytish huquqiga ega deb alohida ta'kidlab o'tilgan. Shuning barobarida 48-moddada Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralarini ko'radi. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

O'zbekiston huquqiy davlat barpo etish sari odimlab borar ekan, bu yo'lda huquqiy tarbiya, huquqiy ongni takomillashtirish masalalariga katta etibor berib kelinmoqda. Bu masuliyatli vazifada mehnat jamoalarida, bilim maskanlarida va har bir shaxs bian olib borish borasida ko'p qirrali ishlar qilinmoqda. Huquqiy tarbiyali bo'lish uchun har bir shaxs umumhuquq bilimga, uni ongli ravishda qabul qilishga va huquqiy madaniyatni alohida bajarishga yetarli darajada huquqiy saboq olish kerak. Lekin hozirgi paytgacha huquqiy tarbiya tushunchasi, uning tushuntirish metodlari olimlarimiz tomonidan to'laligicha yoritilmagan. Huquqiy tarbiyaning keng va tor maonoda ko'rish mumkin. Keng maonoda butun

jamoaning, ko'pchilikning ongiga taosir ko'rsatishga qaratilgan tarbiya, tor maonoda esa alohida shaxsga, uning ongiga taosir etish yo'llari tushuniladi. Huquqiy tarbiya natijasida keng omma yoki shaxs o'z hatti – harakatlarining qonuniy ekanligini tushunsa, huquq tartibotni buzmaslikka harakat qilsa o'zini ongli ravishda, huquq normalariga rioya etgan holda boshqara olsa, maqsadga erishilgan bo'lib hisoblanadi.

Har tamonlama yetuk shaxsni tarbiyalab yetishtirish maqsadi umumtarbiyaning maqsadi barcha yo'nalishlarini bir-biriga uyg'unlashtirilgan holda olib borishni taqozo qiladi. Bu bir kishining emas, balki butun jamoaning burchidir. Huquqiy tarbiya ham bir kishining emas, chunki shaxsni har tomonlama shakllantirish uchun bir tarbiyachi barcha omillarni bilishga qodir emas. Bir pedagog huquqiy tarbiyaning bir yoki bir necha yo'nalishigina shaxs ongida shakllantira olishi mumkin. Pedagog muayyan masala bo'yicha huquqiy tarbiyaga keng yondoshishi uchun shu masalaga aloqador omillarni tanlab olishi, ularni yagona bir mavzuga yig'ishi, misollar yordamida uyg'unlashtirishi kerak. Masalan, o'quvchida O'zbekiston fuqarolariga sodiqlik burchini tarbiyalashda o'qituvchi-o'quvchi qanday qonunlarni o'rganishi kerakliginitanlab olishi, fuqarolarga taalluqli misollar topishi, fuqarolik burchi buzilganda davlat va jamiyat tomonidan quriladigan choralarni belgilashi, yuridik dalillar to'plashi, so'ngra keng tarbiya mavzularini ishlab chiqishi vash u mavzu bo'yicha ish olib borilishi kerak. Lekin shuni unutmaslik lozim, huquqiy ongning hatto biror yo'nalishini shakllantirish uchun ham yuridik omillarning o'zigina kifoya emas: masalan, intizomsiz shaxsni qayta tarbiyalash uchun uning huquqiy ongida burilish yasash, dunyoqarashiga, mehnat munosabatiga, madaniyat darajasiga taosir ko'rsatishi kerak. Agar uni qonunga ko'ra jazolash bilan kifoyalansangiz, axloqiy buzuq ekan, Yana eski odatini davom ettiraveradi. Binobarin, huquqiy tarbiyaga aloqador omillar ikki guruhga bo'linadi: tarbiyachining axborotli hujjatlariga kiritiladigan omillar va tinglovchilar xususiyatiga bog'liq omillar.

Tarbiya jarayonida ikkala guruh omillar baravar etiborga olinishi kerak. Tarbiyachining axborotli hujjatlariga kiritilgan omillari suhbat mavzusida qanday qonun, qonuniy ishlarni tushuntirmoq, asosiy maqsad nimaga qaratilganligini bilib olmoq. Masalan, voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligining oldiniolish bo'yicha tarbiya: jinoiy, moddiy, intizomiy, huquqbuzarlikda voyaga yetmaganlar qanday harakatlari uchun javobgar bulishlariga taalluqli hujjatlarni to'plashdan iborat. Tinglovchilar xususiyatiga bog'liq omillarda tarbiyachi tinglovchilarning qabul qilish darajasi, yoshiga, maxoratiga va boshqa xususiyatlariga etibor bergan holda tarbiya usulini tanlashdan iborat. Subhasiz, huquqiy, siyosiy va ma'naviy ongning o'zaro bog'liqligini esdan chiqarmaslik kerak, lekin shuni ham nazarda tutish lozimki, ularni bir-biri bilan qo'shib yuborish mumkin emas. Tarbiyaviy ishning o'ziga xos yo'nalishidagi huquqiy tarbiyaning mustaqilligi avvalo uning mazmuni bilan bog'liqdir.

Huquqiy tarbiya ongning mustaqil shaklini - huquqiy ongni shakllantiradi, bu esa tarbiyaning o'ziga xos shakllari va usullarini izlab topish va qo'llanish zaruriyatini taqozo etadi. Tarbiyachilar zarur hajmdagi huquqiy bilimlar bilan qurollangan bo'lishi va tarbiyalanuvchilarda huquqiy ongni shakllantirish, ularning huquqiy madaniyatini oshirish uslubiyotini egallashi lozim.

Ma'lumki, huquqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri. Agar ijtimoiy ong umuman ijtimoiy borliqning aksi bo'ladigan bo'lsa, unda huquqiy ong faqat mavjud huquqiy voqea-hodisalarni, shuningdek huquq yordamida tartibga solinishi mumkin bo'lgan Hodisalarni aks ettiradi. **Huquqiy ong** - bu jamiyatda ommaviylashgan huquqiy, shuningdek kishilarning xulq-atvoriga, ijtimoiy muassasalar qadriyatlariga huquq haqidaga shunday tasavvurlar nuqtai nazaridan munosabatini ifodalaydigan nazariyalar, g'oyalar, qarashlar va tasavvurlar majmuidir.

Har qanday jamiyat va jamiyat a'zosining hayoti murakkab va ziddiyatliligi bilan ajralib turadi. Chunki u eng avvalo ijtimoiy muhitga bevosita bog'liq va ayni paytda shu muhit kishilarning huquqiy ehtiyoji, munosabati va iste'molini belgilaydi. Bunda jamiyatning huquqiy madaniyati qanchalik yuksak bo'lsa, mazkur jamiyat kishisining huquqi ham shunchalik boy va sermazmun bo'ladi, shaxs barkamolligiga keng imkoniyatlar ochib beradi. Agar jamiyat madaniy turg'unlikda, inqirozda bo'lsa, mazkur jamiyat kishisining huquqiy saviyasi qashshoq va tuban bo'ladi. Oqibatda shaxs xatti-harakatida salbiy holatlar (korrupsiya, jinoyatchilik, o'g'irlik) avj oladi. Shuning uchun ham jamiyatda barqarorlikni saqlash va qonun ustuvorligini ta'minlash uchun avvalo aholi huquqiy madaniyatini shakllantirish talab etiladi.

Huquqiy madaniyat shakllanishida bilishning ahamiyati katta. Inson mavjud huquqiy manbalar, ularda olg'a surilgan g'oya, dunyoqarash va nuqtayi nazarlarni o'rganishi, o'zlashtirishi kerak. Bilish jarayonida insonning aqli, qobiliyati o'sib, huquqiy madaniyati shakllanadi. U bilimlar, g'oyalar hamda qarashlarni shunchaki qabul qilib qolmay, ba'zi bir g'oyalarni ma'qullaydi, o'z faoliyatida ularga amal qilishga intiladi, ba'zi birlaridan tanqidiy xulosa chiqaradi yoki inkor etadi. Bu unda hurfikrlilikni rivojlantiradi. Shu nuqtayi nazardan, inson huquqiy madaniyat orqali umuminsoniy va milliy huquqiy-madaniyatning mohiyatini chuqur anglaydi. Idrok etish, tafakkur qilish, xulosalar chiqarish asosida o'zida tabiat va jamiyat qonunlariga haqqoniy munosabatni shakllantiradi. Insondagi bu munosabat ongli ilmiy, huquqiy mezonlar orqali amalga oshiriladi.

Shaxsning huquqiy madaniyati, inson huquqlariga rioya qilishi, demokratik o'zgarishlarga nisbatan moyilligi jamiyatda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha belgilangan maqsadlarga erishishning muhim omillari hisoblanadi. Umuman olganda, «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi»ning qabul qilinishi yoshlar huquqiy madaniyatini oshirish, qonun hujjatlari mazmun-mohiyatining fuqarolar va davlat organlari xodimlariga yetkazilishi, o'quv yurtlarida huquqiy ta'lim va tarbiya bo'yicha o'quv dasturlari hamda uslubiy tavsiyalarni ishlab

chiqish, yuridik adabiyotlar nashrini ko'paytirish, shuningdek, fuqarolarning huquqiy yordam olishlarida muhim rol o'ynadi.

Yurtimizda huquqiy demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan yana biri — qonun ustuvorligini ta'minlash va yuksak darajadagi huquqiy ong va madaniyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash mazkur islohotlarning o'zagini tashkil etadi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, mamlakatimiz aholisi va yoshlari ongida qonunlarga hurmat ruhini singdirish masalalari juda muhim. Inson o'zini huquqiy jihatdan yetuk, bilimli deb hisoblashi uchun birinchi navbatda unda jamiyatda o'rnatilgan huquq normalariga nisbatan hurmat ruhi shakllangan bo'lishi lozim. O'tgan yillar mobaynida o'tkazilayotgan islohotlarning qonuniy zamiri yaratildi. Ijtimoiy-siyosiy hayotning huquqiy asoslari izchillik bilan mustahkamlandi.

Vatanimizning rivojlanishi va islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan xalqning huquqiy ongi hamda madaniyati darajasiga bog'liq. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi omildir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi 23.09.2020

3. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to'g'risida Nizom. 2019-yil 20-aprel. (<https://lex.uz/ru/docs/-4300837>)

Mohinur nurillayeva .”Huquqiy madaniyat-Taraqqiyot mezoni”.  
<https://uzhurriyat.uz/2016/08/03/huquqiy-madaniyat-taraqqiyot-mezoni>